

IJODIY PARVOZ

2022-yil oktabr № 10 (114) ✓ dsmi.uz ✓ nashriyot@dsmi.uz ✓ t.me/dsmi_uz



Qutlug’ so‘z bayrami

Til ilmida “dunyoning lisoniy manzarasi” degan tushuncha bor. Har millat dunyoni o’zicha idrok etadi. Tafakkur va taxayyulidagi dunyoni so’zlar orqali ifoda qiladi. So’zlarga to’kilgan dunyo adabiyot bo’ladi, she’r bo’ladi, hikmat bo’ladi, millatning abadiyatga, so’ngiszlikka aloqadorligini ko’rsatuvchi qutlug’ dalillarga aylanadi.

Til bizning o’zligimiz ekan. Biz kimmiz? Biz yetti mahallasini o’z oilasi deb bilgan serandishalarining avlodimiz. Biz bir harf o’rgatganga qirq yil qullik qilishga rozi bo’lgan, ilm qadrini behad yuksak tutgan qadri baland millatning davomchilarimiz. Biz hatto qabristonni buyuk adabiyotga aylantirgan Bilgalarining bolalarimiz. So’zni muqaddas bilgan va isrofidan tiyilgan poktiynat otalarning merosxo’rimiz.

Hozirda ko’chalardagi peshlavhalarda urchigan ajnabiyo so’zlar va purnuqson yozuvlar ko’ngilni ranjitiishi tabiiy. Ammo ular o’z-o’zidan paydo bo’lgan emas. Atayin ham qilingan emas. O’sha g’ashimizga tegayotgan xatolar, aslida, biz yo’l qo’ygan xatolarning oqibati, katta avlod yo’l qo’ygan kamchiliklarning in’ikosi, xolos. Oilada, dasturxon atrofida milliy qadriyatlar haqida suhabatlashish o’rniga boshqa xalq filmlari tomosha qilinayotgan bo’lsa, u xonadonni qadim va qutlug’ qadriyatlar tark etadi. U xonadonda o’zlik o’ksiydi, til ranjiydi. Otalar va bolalar o’rtasida tafovut kuchayadi. Ko’chadagi ajnabiyo so’zlar ham, millatimizga yarashiqsiz urf-odatlar ham hech kimni ajablantirmay, tabiiy holga aylanib boraveradi.

Eskilar so’zni behad shaffof oynaga mengzatib “mir’oti mujallo” deyishgan. So’zlarda insoniyat tubiga yetgan va yetolmagan haqiqatlarning jami mujassam. Sarvari olam “So’zda sehr, she’rda hikmat bor” deydi. O’sha sehrdan yaxshilik yo’lida, ezgulik yo’lida foydalanish donolikning begidir belgisi hisoblanadi. She’rdagi hikmat esa ma’nolarning a’losidir.

Hazrat Navoiy: “Avvalu oxiringg’ a solg’il ko’z, Bil ham avval so’zu ham oxir so’z”, deydi “Sab’ai sayyor”da. Demak, olamning avvali ham, intihosi ham so’z atalgan favqulbasar quvvat manbaiga bog’liq. “O’lukka jon berguvchi” so’zning quadrati haqida millatimizning ulug’lari ko’p va xo’b aytganlar. So’z bilan ilonni inidan chiqirish mumkinligini, til yarosining tig’ yarosidan yuz chandon og’ir ekanligini, so’z bilan jannatni do’zaxga aylantirish mumkinligini ota-bobolarimiz hikmat lisonida ta’kidlashdan charchamaganlar.

Amerika hindulari bilan bog’liq bir rivoyat ko’p eslanadi kitoblarda. Hindu qabilalaridan birining e’tiqodiga ko’ra, baliq go’shti halol boshqa go’shtlar esa harom hisoblanar ekan. Uzoq davom etgan qurg’oqchilik tufayli ko’l-u daryo suvleri tortilib, baliqlar kamayib ketibdi. Go’shtga bo’lgan ehtiyoj qondirilmagach, odamlar zaiflashib, og’ir mehnatga, jangga yaroqsiz bo’lib qolishibdi. Qabila oqsoqollari kengashib bu ahvoldan chiqish choralarini qidirishibdi. Shunda bir donishmand: “Agar kiyikni tog’ balig’i deb atasak, odamlar uni iste’mol qilisharmikan?” debdi.

2

Yoshlar ma’naviy kamolotida musiqa san’atining o’rni

Qator mamlakatlarda maktab hamda maktabdan tashqari tashkil topgan o’quv jarayoni, uning shakl va usullari shubhasiz, katta qiziqish uyg’otmoqda. Jahonning ko’pgina mamlakatlarida yosh avlodga musiqa tarbiya berish ishlari umum davlat ahamiyatga ega bo’lib, shaxsnı shakllantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Har bir mamlakatning musiqa tarbiyasi g’oyaviy-siyosiy jihatdan xalqning sotsial tizimiga xizmat qiladi.

3

Yolg’onchilikdan chetlanib, rostgo’ylikka yopishgan kishini boshqa odam u yoqda tursin, yolg’onching o’zi ham sevib maqtaydi.

Abu Rayhon BERUNIY

Har bir millatning dunyoda borlig’ini ko’rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yo’qotmak millatning ruhini yo’qotmakdur.

Abdulla AVLONIY

Yuksak baxt

Sentabr oyi kelishi bilan shaharlarimiz, ayniqsa, poytaxtimiz minglab talabalarga gavjum bo’ladi. Oliygochlari, kutubxona va istirohat bog’larida bir guruh bo’lib yurgan talabalar ko’zingizni quvnatadi. Oltin davr gashtini surayotgan yoshlarga beixtiyor havasingiz keladi.

2

Inson qalbi qanday ekanligi muhim. Go’zal tanada go’zal qalb bo’lmasa, undan nima naf bor?

YEVRIPID

Xalqaro kinofestival

Yigirma to’rt yillik tanaffusdan so’ng o’z faoliyatini tiklagan Xalqaro kinofestival yana kino ijodkorlarni bir joyga jamladi. Bu yilgi XIV Xalqaro kinofestivalni ko’tarinkи ruhda o’tkazish uchun katta tayyorgarlik ko’rildi. Festivalda dunyoning ellik ikki mamlakatidan kino ijodkorlar, jumladan, rejissorlar, ssenaristlar, aktyorlar, operatorlar tashrif buyurdi.

2

Bandasining boshi - Allohning toshi deydilar. Boshingga ko’rgulik tushsa, noumid bo’lma: bulut o’tkinchi, quyosh esa abadiydir...

O’tkir HOSHIMOV



Kimdir mayda millat bo'ldi, kimdir katta,
Katta millat Afandisi yo'qdir hatto,
Biz piyoda, biz boqqanlar yurdi otda,
Zulm o'tsa faqat sendan o'tdi zulm,
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Muhammad YUSUF

Qutlug' so'z bayrami

Buni sinab ko'rishga qaror qilishibdi. Ma'lum vaqt o'tgach, odamlar "tog" balig'i ni bemalol iste'mol qilishga ko'nikishibdi. Shu tariqa qabila ahli qiyinchilik yillardan omon o'tib olishibdi.

So'zning ta'sir kuchi hamma davrlarda, hamma xalqlarda e'tirof etilgan va unga ehtirom ko'rsatish muttasil ta'kidlab kelingan. O'pkadan kelayotgan havo oqimining og'izda "jonlanishi", turfa ohang, turfa ma'no kasb etishi odamzodni hayratga solgan bo'lishi tabiiy hol. Bu hayratni she'riyat mukning sultonini buyuk Navoiy benihoyat go'zal tarzda ifodalagan:

*Ham so'z ila elga o'limdan nayot,
Ham so'z ila topib o'lik tan hayot.*

Xalqning hikmat ganjinasi bo'lmish maqol va iboralarimizda ham bunga monand hayrat jilvalarini istagancha topish mumkin: O'z qadrini bilgan so'z qadrini bilir. Bir so'z kuldiradi, bir so'z o'ldiradi. So'z kishining o'zagi. Ko'z yetmaganga so'z yetar. Suv toshni yorar, so'z boshni.

Aslida, hind donishmandining aytganicha bor: "*Dunyoni va odamlarni so'z boshqaradi*", shunday emasmi? Yaratganning kalomi ham raqsda yoki kuya emas, so'zda namoyon bo'lmaganmid? So'zning ilohiyligi rost, odamlarni boshqarish kuchiga sohibligi ham rost. Jangda qo'mondonning mohirona ishlatsan so'zlari ta'sirida askarlar o'limga qarshi tik va mardona bora oladilar. So'zlarda o'limni ham hechlashtiradigan buyuk kuchning borligi rost, axir.

Ulug'lar: "*So'z murakkab vaziyatlarda sadogatli do'st, tang hollarda nayot*", deb bejiz aytishmaydi. Amir Temur shiddatli janglarning birida askarlariga to'lash uchun tangalarning tamom bo'lganligi va hazinadan tanga yuborishi zarurligi haqida Bibixonimga xabar jo'natibdi. Chopar tanga o'rniga ikki enlik xatni Amir Temurga eltilbdi. Xatda yozilgan ekan: "*Tangalaringiz tamom bo'lgan ersa, siyosatingiz ham tugaganmi, amirim?*" Buyuk sarkarda vaqtinchalik pul o'rnimi bosadigan boshqa manbalardan foydalangan va janglarda muvaffaqiyatini davom ettirgan ekan. Nari borsa o'ntagina so'z orqali nayot yubormaganmidi, Bibixonim?!

Bugun – bayram, muqaddas til va qutlug' so'z bayrami. Ming yillik adabiyotimizning pokiza osmonida porlagan "Devoni lug'atit turk" dan, "Qutadg'u bilik" dan, Yassaviy "Hikmatlar" idan, Navoiyning shohbaytlaridan taralgan yoniq va yorug' so'z bayrami. Bu bayram barchamizga muborak bo'lsin!

Ma'rufjon YULDASHEV,

Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va
ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i,
filologiya fanlari doktori, professor

Til millat ruhi

Inson dunyoga kelar ekan, avvalo o'zining tiliga, diniga, o'z hayot yo'liga ega bo'lgan holda dunyo yuzini ko'radi. Til bo'limasa millat o'zligini, o'z til boyligini va boshqa millatlardan nimasi bilan ajrab turishini farqlqsh mushkul. Xuddi bolariga asal yig'ish uchun gul kerakligiday inson ham o'zligini anglashi uchun albatta, til birligi kerakdir. Bugungi kunda boshqa davlatlardan kirib kelayotgan yangi so'zlar hisobiga tilimizda ancha g'alizliklar sezildi. Masalan, magistraturaga kirish uchun ingliz yoki boshqa tillardan imtihon topshirish kerak. Albatta, til bilish bu dunyo ko'rish, o'z karyerasini amalga oshirish deganidir. Lekin men aynan ona tilimiz har bir masalada har bir siyosiy ishning bir parcha o'rnini to'ldirishi kerak, deb hisoblayman.

Tilimiz nimalar orqali buziladi? Har kuni ertalab ishga, o'qishga ketar ekanmiz, bir-biridan go'zal binolarni ko'rib yurtimiz qanchalar chiroy ochganiga guvoh bo'lamiz. Lekin ularga yozilgan har-xil chet el so'zlarini ko'rib, xafa bo'lib ketasan kishi. Nega aynan chet el so'zlar? Mana shu so'zlar o'zbek tilida yozilsa, binolarni xunuk ko'rsatadimi? Albatta, bugungi kunda real fikrash va zamonga moslashish va shunga yarasha harakat qilishni taqozo qiladi. Lekin bu o'z ona tilini unutib chetga surib qo'yish degani

Qaysi bir millatning ona tili o'z hojatini o'tayolmay, boshqa yot tillar oldida mag'lubiyatga uchrab tiz bukar ekan, unday millat ko'p uzoqlamayoq, insoniy huquqlaridan ajragan holda hayot daftari ustiga inqiroz qalami chekilishi shubhasizdir. Unday millatlar yolg'izgina Vatanlaridan emas, balki butun borlig'i bilan tarix yuzidan yo'qolishga majbur bo'ladilar.

Alixonto'ra SOG'UNIV
(«Turkiston qayg'usi» kitobidan)



o'tayolmay boshqa yot tillar oldida mag'lubiyatga uchrab tiz bukar ekan, unday millat ko'p uzoqlamayoq insoniy huquqlaridan ajralgan holda hayot daftari ustiga inqiroz qalami chekilishi shubhasizdir. Unday millatlar yolg'izgina vatanlaridan emas, balki butun borlig'i bilan tarix yuzidan yo'qolishga majbur bo'ladilar", degan edi Alixonto'ra Sog'inivy.

Bunda aymoqchi-ki, qaysi millat tilidan voz kechib, yoki o'z ona tilini bilmasa, bu uning mag'lubiyatidir. Til va millatini bilgan inson o'zligin anglaydi. Tilimiz, dinimiz, millatimiz qadimdan e'zozlanib kelingan. Bu haqida ko'plab faktlarni keltirish mumkin. Bejizga jadidlar ona tilimizni ulug'lab, targ'ibot va tashviqot ishlarini olib bormagan.

Darhaqiqat, har bir millatning tili va adabiyoti o'sha millatning taraqqiyotini belgilaydi. "Qaysi bir millatning ona tili o'z hojatini

Dinora RAHIMBAYEVA,
"Kutubxona-axborot
faoliyati" fakulteti 3-bosqich
talabasi

Ustozga ehtirom

So'nggi yillarda Alisher Navoiyning boy va serqirra ijodiy merosini har tamonlama chuqur o'rganish, uning o'imas asarlarini yurtimizda va xorijiy mamlakatlarda keng targ'ib qilish hamda abadiylashtirish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 19-oktabrda, PQ-4865-sonli qarori qabul qilindi. Qarorning 8-bandida "Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'lim vazirligi, Maktabgacha ta'lim vazirligi, Vazirlar Mahkamasini huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi Alisher Navoiy asarlarini uzlusiz o'qitish konsepsiyasini ishlab chiqsin hamda 2021-2022 – o'quv yilidan barcha ta'lim muassasalarida shu asosda o'qitishni yo'lda qo'yisn", deyilgan.

Shu farmon ijrosi bilan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida ham 2021-2022 – o'quv yilida "Navoiyshunoslik" fani darslik sifatida o'quv rejaga kiritildi. Bu fan institutimizning "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasiga qaraydi. Ushbu kafedrada ko'plab salohiyatlari va o'z kasbining fidoyi ustozlari faoliyat yuritadi. Ana shunday ustozlarimizdan biri Zumriniso Kozimovadir. Bu ustoz o'z darslari orqali biz talabalarda o'zbek tili va adabiyotiga bo'lgan mehrni oshishida hissasi va xizmati katta. Dars jarayonida buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiyning

Siz ilmga bor-
yo'g'ingizni
bermaguningizcha,
u sizga biror narsa
bermaydi.

Imom G'AZZOLIY

adabiy merosini tanishtirish bilan birga, ruhan o'sha zamonga etaklaydi ham. Ustoz shijoatli, mehribon va o'z kasbining bilimdomi, deya olaman. U darsni ma'suliyat bilan olib boradi. Mashg'ulotni qiziqarli olib borgani sababli, dars niyoyasiga yetganligini sezmay ham qolamiz. Zumriniso Kozimovani ham inson, ham murabbiy sifatida hurmat qilaman.

Bugungi kunda mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish g'oyasi asosida ulkan maqsadlarni oldimizga qo'yari ekanmiz, buyuk ajoddolarimizdan meros bo'lgan "Ustoz-shogird" an'analarini davom ettirishimiz, ustozga munosib shogird bo'lishimiz muhim ahamiyat kasb etadi.

Saida ERGASHOVA,
"Kutubxona-axborot faoliyati" fakulteti
3-bosqich talabasi

Xalqaro kinofestival

Haftalik davomida "Ayol qismati", "Baron-2" (O'zbekiston), "Ko'pkari" (Qirg'iziston), "7-bo'lmadagi mo'jiza" (Turkiya), "Qora gussarlar" (Fransiya) kabi bir qancha hujjatlari va badiiy filmlar namoyishi bo'lib o'tdi. Namoyishdan so'ng mutaxassislar tomonidan muhokamalar tashkil etildi.

Bundan tashqari, fransuz kinorejissori Fabris Marash hamda turkiyalik rejissor Umut Meni So'yanlar tomonidan o'tkazilgan mahorat darslarida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti talabalari ishtirot etdi. Muloqot davomida ijodkorlar film suratga olish jarayoni bilan bog'liq o'zlarining tajribalarini

Yuksak baxt

Kimlargadir o'tmishning yorqin xotirasiga aylangan, ba'zi insonlar uchun esa, armon bo'lgan bu davr, o'ziga xosligi bilan umrning beqiyos bo'lagi hisoblanadi. Talabalikga tavsiya etilgan tengdoshlarimning ko'zidagi quvonch dunyolarga sig'maydigandek go'yo.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, joriy yilda 190 375 nafar abituriyent talabalik baxtiqa sazovor bo'ldi. Men va yaqinlarim uchun quvonlarli jihat shunda-ki, menga ham ushu yuksak baxt nasib etib, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti talabasi bo'ldim. Minglab vatandoshlarim qatori men ham yorqin kelajak sari qadam qo'yari ekanman, o'qish davomida sohaga oid bilimlarni chuqur egallab, kelajakda Vatan rivoji uchun o'z hissami qo'shish olyi maqsadimga aylandi.

Maktab kezlarida meni doimo qo'llab-quvvatlagan ota-onamga va ustozlarimga minnatdorchilik



bildiraman. Ularning ishonchini oqlaganimidan bag'oyatda xursandman. Talaba bo'lish ilinjida tunni tongga ulab bilim o'rganayotgan yurtdoshlarimga ham ushu yuksak baxt nasib etishini chin qalbimdan tilab qolaman. Zero, el-yurt manfaati uchun qilinayotgan harakat samarasiz qolmaydi.


Abdulaziz
MAMAZOKIROV,
"Kino televideniya va radio san'ati" fakulteti 1-bosqich talabasi

bilan bo'lishishdi. Talabalar mutaxassisliklari bo'yicha o'zlarini qiziqitrgan savollarga javob olishdi.

Ushbu kinofestival san'atni rivojlantirish, mamlakatlar o'tsasida tajriba almashish va yetishib chiqayotgan yangi kino ijodkorlar uchun muhim amaliyot vazifasini o'tadi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Munira QILICOVA,
"Sahna va ekran san'ati dramaturgiyasi" bo'limi
2-bosqich talabasi

Inson psixologiyasida kitoblarning ahamiyati



"Kitob har qanday qasr va osmono'par binolardan chiroyliroqdir. Chunki u aqlni sayqallaydi, qalblarni shodlantiradi, ko'ngilni ochadi va fikrni o'stiradi"

Doktor Oiz QARNIY

Inson yaralibdi-ki, o'zining ehtiyojlar uchun qo'ldan kelganicha harakat qilib, faoliyat olib boradi. Hatto, ibtidoi tuzum davrida, inson ongsiz tarzda bo'lsa ham asta-sekin shaxsiy tushunchalar haqida fikr yurita boshladи. Vaqtlar o'tishi bilan ana o'sha fikr yuritish doirasi kengayib, shaxsning to'laqonli mulohazalar olib borish salohiyati shakllanadi. Inson o'zini anglay borib, o'z insoniy xislati, xususiyati, sifati, xulgini o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Insoniyatning buyuk yutug'i – tafakkurning kashf etilishi rivojlanishimizning takomillashishi edi.

Psixologiya barcha sohalar bilan chambargas bog'liq. Shuningdek, kundalik hayotimizdan tortib, ish faoliyatimizgacha. Biz kutubxonachilar, donolar aytganlaridek, xazinabonlarmiz. Xazina kimga ham yoqmaydi, deysiz. Eng katta boylik hisoblanmish, bilim manbai – kitoblarni yaxshi saqlash, ziyo tarqatish va kelgusi avlodlarga asrab-avaylab yetkazish bizning asosiy burchimizdir. Menimcha, kutubxonachi xodim, albatta, psixolog bo'lishi lozim. Mutaxassislikka ta'lif olish jarayonida psixologiya fan sifatida ko'proq o'tilsa, bo'la jahon kutubxonachi kadrlar bu fandan chuquroq bilimga ega bo'lsa, jamiyatning har qanday vakili bilan ishlashda qiyinchilik bo'lmaydi.

Kutubxonachilik kasbi madaniyat, bilim, xushmuomala talab etadigan ma'suliyatlari kasbdir. Har bir kitobning ahamiyatini, mazmun-mohiyatini, kitobxon auditoriyasini, kitobning ta'sir doirasini kutubxonachi juda yaxshi bilishi lozim. Ko'p hollarda kutubxonaga murojaat qilayotgan kitobxonlar, qaysi kitobni o'qib chiqish bo'yicha tavsiyaga muhtoj bo'ladi. Albatta, hammaga bir xil maslahat berib bo'lmaydi. Boisi, insonlarning ichki olami,

dunyoqarashi, tasavvur doirasi har-xil. Bu vaziyatda kutubxonachining saviyasi va bilim darajasi qanday ekanligi ayon bo'лади.

Har bir kitobxonga ruhiy olami, individual xususiyatlari, qiziqishlari, kasbidan kelib chiqib muayyan kitobni tavsiya qila olish, kutubxonachining asosiy vazifasidir. Shaxslararo yaxshi munosabatga kirishish ham bir qobiliyat desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bugungi tezkor zamonda barchaning tashvishi, qiyayotgan muammosi borligi bois ba'zida diqqatni jamlash, ruhiy xotirjamlikka erishish mushkul kechmoqda. Demak, kutubxonachi holat va vaziyatdan qat'i nazar, kitobxonni anglay olishi, yaxshi tavsiyalar orqali mutolaaterapiya kabi foydali yordam bera olishi zarur. Kitobni zerikkanda, bo'sh vaqtida emas, balki eng yaxshi va kerakli vaqtida ham mutolaa qilish lozim. Ana shundagina u o'z samarasini beradi. Qadimda ham kitob inson ruhiyati chirog'i hisoblangan ekan. Ramzes II davridayoq kutubxona "Qalb darmonxonasi" deb nom oлган. Kutubxonaga faqat fan bo'yicha, ilmiy zarurat yuzasidan emas, balki tushkunlikni yengish, ma'naviy ozuqa olish uchun ham bemaol murojaat qila olishgan. Kitoblar beminnat do'starimizdir.

Bilamiz-ki, kitobga oshno inson ma'naviyatlari shaxs sifatida jamiyatda o'z o'rniga egadir. O'z fikrini to'liq va ravon, ta'sirli qilib suhabdoshiga yetkaza olish, talaygina so'z boyligini talab qiladi. Zero, kitob bilim bulog'i, deb be'jiza aytmaydilar. Eng sevimli mashg'ulotim badiiy kitoblar mutolaasi bilan vaqt o'tkazishdir. Alisher Navoiy, O'tkir Hoshimov, Said Ahmad, Iqbol Mirzo kabi zabardast yozuvchilarimizning asarlarini qayta-qayta o'qisam ham zerikmayman. Kitob ruhiyatimga xotirjamlik baxsh etadi.

Xusnidaxon QO'SHOQOVA,
"Kutubxona-axborot faoliyati" ta'lif
yo'nalishi 4-bosqich 402-guruh talabasi

Bugungi kunda oliy ta'lifning asosiy maqsadi, tom ma'noda Yangi O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy sohalardagi taraqqiyotini belgilash, jahon hamjamiyati mamlakatlari ta'lif tizimi safidan munosib o'rinciga egallashga intilish yo'lidagi keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirishdir. Ayniqsa, dars jarayonlarida jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalarini o'rganish, interfaol darslarni tashkil etish, amaliyat va nazariyaning mutanosibligini ta'minlashga katta e'tibor qaratilmoqda.

OCHIQ DARS

Bu orqali ta'lif muassasalarini talabalari o'z sohasining bilimdoni, kasbiy malakalarni yuqori darajada egallay oлган, boy tajriba va mahoratga ega kadrlar bo'lib olg'a qadam tashlamoqdalar. Shunday ekan, oliy ta'lif muassasalarida biz, yosh kadrlarni tayyorlash jarayonida davrning mazkur talabini inobatga olish maqsadga muofiqdir. Professor-o'qituvchilar biz talabalarning intellektual salohiyatini oshirishda innovatsion ta'lif texnologiyalari, o'qitishning yangi, innovatsion shakl, metod va vositalar bilan tanishtirish, kasbiy sifatlarni shakllantirish, tafakkur qobiliyati mohiyatini tushuntirish muhim ahamiyatga egadir.



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutimizda ta'lif samaradorligiga erishish, nazariy va amaliy mashg'ulot jarayonida ilg'or pedagogik yondashuvlarni tatbiq etish ishlarini takomillashtirish bo'yicha e'tiborga molik ishlar amalga oshirilmoqda.

"Madaniyat va san'at menejmenti" kafedrasini o'qituvchilar Mo'minmirzo Xolmo'minov va Rahima Yusupovlar tomonidan biz 1-bosqich talabalari uchun "Abu Nasr Forobiyning Fozil odamlar shahri asarida boshqaruv san'ati va rahbarlik tanlovi haqidagi axloqiy o'gitlari tahlili" mavzusida innovatsion ochiq dars tashkil etildi. Dars jarayoni "O'zbekiston 24" va "Madaniyat va ma'rifat" telekanallari tomonidan tasvirga olindi. O'ziga xos bellashuv tarzida o'tgan innovatsion darsda O'ZDSMI Yoshlar masallari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektori E.Shermonov, Respublika madaniyat muassasalarini faoliyatini tashkil etish ilmiy-metodik markazining "Adabiyotlar, ilmiy-metodik va o'quv qo'llanmalar nashr etish bo'limi" boshlig'i N.Karimova, "Xalq ijodiyoti" fakulteti dekani, iqtisod fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori B.Usmonov, O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashining boshlang'ich tashkilot yetakchilarini bilan ishlash bo'limi bosh mutaxassis M.Siddiqova hamda talaba-yoshlar ishtirok etishdi. Institutimizdagi mazkur innovatsion darslar mutazam ravishda davom ettirilib kelinmoqda.

Ochiq darslar biz talabalarda mustaqil hamda ijodiy fikr lashni tarbiyalash bilan bir qatorda, o'zimizni namoyon etishga, ilm-u tafakkurga intilishga, yangidan yangi bilimlarni o'zlashtirishga, innovatsion ta'lif madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Baxtiyor SAMIEV,

"Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish" yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Yoshlar ma'naviy kamolotida MUSIQA SAN'ATINING O'RNI

Har bir xalqning maorifida musiqa tarbiyasi metodikasi pedagogikaning didaktik qonuniyatlariga va shu xalqning milliy musiqa madaniyatini, tili va madaniy an'analariga asoslanadi. Shu bilan birga musiqa tarbiyasining strukturasi, sistemasi (tizimi) va ilmiy-metodik yutuqlar boshqa millatning ma'rifiy madaniyatiga ham ijobji ta'sir etadi.

Jamiyatimiz taraqqiyotida ma'naviy va jismony sog'gom avlodni tarbiyalash bugungi kunda bizning eng ustuvor vazifalarimizdan biri sanaladi. Qator aytilan bu fikrlar zamirida har doimgidek yoshlar turadi, sababi ularning bugungi kundagi oлgan ta'lif-tarbiyasi nafaqat o'zlar uchun, balki yurtimiz taraqqiyoti uchun eng muhim poydevordir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bejizga: "Agar mendan sizni nima qiyayaydi", deb so'rasangiz farzandlarimizning ta'lif va tarbiyasi deb javob beraman", – degan purma no so'lari fikrimizning yaqqol dalilidir.

Ma'lumki, sog'gom oilaviy muhitda tarbiyalangan bolaning hayot haqidagi turli voqe-hodisalar, urf-odat, madanyat va san'atga oid taassurotlari ko'pincha ijobji kechadi. Oiladagi birdamlikda oynejahon orqali badiiy ko'rsatuv, konsert, sepektakl tomosha qilish va mana shu tomoshadagi taassurotlarni farzandlar bilan o'toqlashish bola dunyoqarashini kengaytiradi va boyitadi. Xususan, musiqa oilaviy muhit yiroq bo'lgan bolalarni qiziqtish uchun ham va qiziqqan bolalarni yanada dunyoqarashini boyitish uchun ham o'rta ta'lif maktablarida, maktabgacha ta'lif muassasalarida san'at

ustalari bilan ijodiy uchrashuvlar, ko'ngilochar tadbirlarni tashkillashtirish, ularning musiqa haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, o'quvchi yoshlarning qiziqishini oshirib, bo'sh vaqtlarini behuda sarflamasliklarini oldini oladi. Bejizga Prezidentimiz bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan "Besh muhim tashabbus"ni joriy qilmadi. Aynan shu besh tashabbusning birinchi yo'nalishi musiqa va san'atga bag'ishlangan. Bundan anglashiladi-ki, musiqaning yosh avlod tarbiyasida roli katta.

Insonning ruhiy kamoloti haqida so'zlar ekanmiz, albatta bu mavzuni musiqa san'ati to'ldiradi.

a) Musiqa – o'z tabiatiga ko'ra hissия va ruhiy kechimlари uyg'otuvchi;

b) Musiqa – kishilarda nozik didni tarbiyalovchi;

c) Musiqa – tinglovchini ham, ijrochini ham nafosatga, ma'naviy barkamolikka undovchi kuchli vosita.

Shu o'rinda yana bir fikrni aytib o'tish joizdir. Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asarida: "Eng muhimi bugungi kunda musiqa san'ati navqiron avlodimizning yuksak ma'naviyat ruhiida kamol topishida boshqa san'at turlariga qaraganda ko'proq va kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda", – deb musiqa san'atining yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyatini alohida ta'kidlab o'tgan.

Ko'pchilik yaxshi biladiki, ertaklarda qahramon musiqa orqali ulkan dev yoki ilonni sehrlab, uning



changalidan o'zi yoki sevgan qizini xalos etadi. Bunday voqealar rivoji musiqa orqali ifodalab, oshib beriladi. Chuquroq nazar tashlaydigan bo'lsak, buning zamirida musiqa ko'ngilni ezzulikka undovchi san'at ekani o'z aksini topgan. Musiqa – ashula va raqs tarkibida ham vujudga keladi. Keyinchalik esa badiiy ijodning turiga aylanadi. U o'ta o'ziga xos badiiy ifoda "til"iga ega bo'lib, maxsus ishlab chiqilgan va tanlab olingan tovushlar ana shu "til"ning manba'idir. Musiqaning g'oyaviy mazmuni nafaqat yosh avlod, balki butun insoniyat tarbiyasini bilan bog'liqdirdi.

Bolalar tomonidan musiqaning idrok etilishi, avvalo, milliy musiqamizni idrok etishdan boshlanishi lozim. Milliy istiqlol sharofat bilan milliy musiqiy merozimizga milliy-ma'naviy qadryatlarimiz qatorida alohida e'tibor berilishi boshlandi. Endilikda biz xalqimizning ajoyib, xilma-xil va bir-biridan go'zal mahalliy musiqiy an'analarini tinglab idrok etish va ulardan ma'naviy zavq olish, ruhiy bahramand bo'lish imkoniga ega bo'ldik. Milliy musiqa xalqimiz boy ma'naviyatining, barkamol ruhiyatining sadolardagi go'zal badiiy ifodasi bo'lish bilan bir qatorda yangi, buyuk davlat bunyodkorligi

yo'lida timay mehnat qilayotgan xalqimizga, jamiyatimiz ma'naviy ruhiy quvvat bag'ishlovchi muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Musiqaning ana shunday o'tkir tarbiyaviy kuchidan foydalish, san'at vositasida yosh avlodning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish, ularda yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash umumta'lim maktablari zimmasidagi eng muhim va doim dolzarb bo'lgan vazifalardan biridir. Davlatni ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma'naviy jihatdan rivojlanishiga hamda mustaqilligimizi yanada mustahkamlashda o'tmish me'rosimiz, ya'ni milliy musiqa merozimizning o'rni alohida. Ma'lumki, biz bugungi kunda butun dunyo shiddat bilan o'zgarayotgan fan-teknika, innovatsiyalar asrida yashayapmiz. Fan-teknika qanchalik tez o'zgarsa, musiqaning hayotimizda tutgan o'rni shunchalik muhim bo'lib boraveradi. Xuddi shunday, bu albatta yurtimizda ta'lif sohasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bugun har bir pedagog-o'qituvchi darslarini ana shunday samarali o'tkazish uchun bundan foydalananmoqda. Bu borada aynan musiqa fanida chinakam musiqa namunalari va ularda ilgari surilgan ezgu g'oyalar yosh avlodga singdirilmoqda va o'zining ijobji natijasini bermoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkin-ki, musiqa tarbiyasi shaxs sifatida shakllanayotgan bolalarning qalbida milliy ruhni kamol toptirish, ma'naviy va axloqiy madaniyatni, musiqiy didni shakllantirish, musiqiy tasavvurlarni yanada boyitish hamda ularda vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ularini, tashabbuskorlik qobiliyatlarini kamol toptirish, demakdir.

Umarov Humoyunmirzo ZAHRIDDINBOBUR o'g'li, "Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish" ta'lif yo'nalishi 2-bosqich magistranti



OYDIN QIZLAR, OYJAMOL QIZLAR

Qiz bola degan nom chiroyli muqova. Uning ichida muqovadan ham chiroyli mazmun bo'lishi lozim. Farzand tarbiyalab voyaga yetkazar ekanmiz, uning xushxulq, odobli, zehni o'tkir bo'lishini orzu istaymiz. Etuk tarbiya evaziga jannat va'da qilinayotgan qiz bola tarbiyasi esa, o'z navbatida ancha murakkab va ma'suliyatlidir. Chunki qiz bola bo'lg'usi ona. Oilada farzand tarbiyasi asosan ayol kishiga bog'liq. "Ota bilimli bo'lsa, farzand bilimli bo'ladi. Ona bilimli bo'lsa, millat bilimli bo'ladi", deydi dono xalqimiz.

BMT Bosh Assambleyasining 2011-yil 19-dekabrdagi rezolyutsiyasiga asosan, 11-oktabr – "Xalqaro qizlar kuni" deb e'lon qilingan. Bu sana har yili jahon bo'ylab turli davlatlarda qizlarning kamshitilishi, ularning ijtimoiy muammolariga e'tibor qaratish maqsadida nishonlanib kelinmoqda. Kuni kecha O'zbekistonning barcha shahar va viloyatlarda tashkil qilingan konsert dasturlari, tadbir tomoshalar aynan Qoraqalpog'iston Respublikasida ham ko'taringki ruhda bo'lib o'tdi. Tadbir soat 9:00 da O'zbekiston Davlat yosh tomoshabinlar teatri foyesida hunarmand qizlarning ijodiy ishlari, ko'rgazmalari, shuningdek, qizlar uchun kerakli sohalardagi master klasslar hamda iste'dodli va yosh dizayner Indira muallifligidagi milliy liboslar kolleksiysi bilan boshlandi. Respublikaning turli yo'nalishdagi eng faol, ziyrak, ishbilarmon qiz va ayollar bilan to'lgan konsert zalida o'zgacha ko'taringki ruh paydo bo'ldi. Tadbirni ochib berish

maqsadida, so'z olgan Qoraqalpog'iston Respublikasi yuqori kengash raisi o'rinnbosari, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi rahbari Axmedova Maryam Halillayevna, davlatimiz tomonidan xotin-qizlarga qaratilayotgan e'tibor va yangidan-yangi imkoniyatlar, loyihamar haqida so'zladi. Va bu imkoniyatlardan oqilona foydalinish kerakligini xotin-qizlarga ta'kidladi. So'ngra tadbir dasturi bo'yicha jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lgan, mehnatlari evaziga ko'plab yutuqlarga, sovrinlarga munosib ko'rilib, eng muhimmi xalq e'tiboriga tushgan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat universiteti professori, falsafa fanlari doktori Berdimuratova Alima Qarlibaevna, Ajiniyaz nomidagi Nukus Davlat pedagogika instituti dotsenti, tarix fanlari doktori Abdullayeva Yaxshibeyke Atamuratovna, shuningdek, Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti professori, qishloq xo'jaligi fanlari doktori Shamuratova Naima kabi bir qator olima

ayollarimiz ustozlarimiz bilan birgalikda ochiq suhabat ko'rinishida erkin savol-javob, munozara qizg'in tus oldi. Ustozlar faoliyati davomidagi tajribalari haqida qisqacha so'zlab berdilar va qizlar uchun foydali bo'Igan maslahat berdilar. O'git-u nasihatlar bilan yakuniga yetgan suhabat, har sohada o'zini ziyrakligi, jamaot ishlardagi faolligi, tashabbuskorligi evaziga rag'bat sifatida taqdirlash marosimi taniqli san'atkorlar, raqs ansamblari ijrosida ko'ngilochar konsert dasturiga ulahdi. Xullas, barchasi reja asosida ko'ngildagidek yakun topdi.

*O'tib turing ko'chamdan goh-goh,
Ko'ngil yayrar ko'rganim sari.
Ey gulbadan, ey kiyiknigh,
O'zbegoyim nabiralari.
Oydin qizlar, oyjamol qizlar,
Oydan tushgan ogro'mol qizlar!*

(Muhammad Yusuf)

Nozima ULUG'JAVA,
O'zbekiston davlat san'at va
madaniyat instituti Nukus filiali
3-bosqich talabasi



ART TERAPİYA

"Art" so'zi san'at, ijod, rasm ma'nolarini ifodalaydi. Bunga misol sifatida rassomlik, bo'yoqsiz chiziqlar bilan rasm solish san'ati – grafika, haykaltaroshlik kabi san'at turlarini keltirish mumkin. Grekcha "terapiya" so'zi esa "davolash" ma'nosini anglatadi. Art terapiya mohiyatida inson san'atning biron turi bilan mashg'ul bo'lar ekan, chizadi yoki yasaydi. Bunda u kechimmalari va ichki dunyosini namoyon qiladi, degan tushuncha yotadi. Art terapiya insonga san'at orqali, psixologik muammolarini hal qilishiga ko'maklashadi. Davolovchi mashg'ulotlar, albatta art terapevt, psixolog yoki psixoterapevt ishtirokida o'tkazilishi shart. Art terapiya usuli o'z oldiga qator psixologik vazifalarni qo'yadi. Shu sabab, unda mutaxassis ishtiroki va maslahati zarur. Kundalik tashvishlardan chalg'ish, tushkunlik va yolg'izlik dahshatini yengib o'tish uchun musiqa, raqs, rasm chizish kabi mashg'ulotlar yordam berishi tez-tez uchrab turadigan

holat. Bolaligimizda turli qiziq faoliyatlar tufayli vaqt hisobini yo'qtib, xayol dunyosiga g'arq bo'Iganimizni yaxshi eslaymiz. Art terapiya shunga o'xshash mashg'ulotlar zamirida paydo bo'Igan va uning maqsadi ham insonga ruhiy beqarorliklar davrida yordam berishdir.

Art terapiyaning ko'plab turlari mavjud:

- musiqaterapiya;*
- ertakterapiya;*
- o'yinterapiya;*
- raqsterapiya;*
- fototerapiya;*
- qumterapiya;*
- artsintez terapiya va boshqalar.*

Uni hozirgi vaqtga kelib, boshqa yo'nalishlar bilan sintez qilish natijasida yangi turlari ham paydo bo'lmoqda. Xo'sh, artterapiya bizga qanday yordam beradi?



Uning yordami salbiy his-tuyg'ularni (agressiya, g'azab, jahl, dilsiyohlik) ijodiy shaklda ifodalashda namoyon bo'ladi. Bu orqali kishi o'zida ichki chigallikning yozilganini, kuchli toliqishni his qiladi. Bunday ijodiy faoliyatdan keyin tinchlani, sokin tortib qoladi. Ijodiy mehnat yordamida kishi o'z imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi. Art seanslar bolalar va kattalarga har tomonlama uyg'un rivojlanishga erishishida ko'mak beradi.

*Nasiba ABDULLAYEVA,
"Ijtimoiy-madaniy faoliyat"
ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

Yaxshilikning qaytishi

Dehqon tuzoqqa ilangan bir burgutni ko'rib qoldi va uning xushsurat qush ekanligidan hayratlanib, tuzoqdan ozod qildi. Keyinchalik burgut ham dehqonning himmatiga yaxshilik bilan javob qaytardi. Bir kuni u dehqonning omonatgina chayqalib turgan bir devor tagida o'tirganini ko'rdi va uchib kelib uning do'ppisini changaliga ildi-da, olib qochdi.

Dehqon irg'ib o'nidan turib, burgutni quva ketdi. Burgut do'ppini tashlab yubordi. Dehqon do'ppini olib, orqasiga o'girilsa, o'zi tagida o'tirgan devor qulab tushibdi. Dehqon burgutning bu yaxshiligidan behad to'lqinlanib ketdi.

Naqdidan qo'ymasin

Bir kuni sher uxbab yotgan quyonni topib oldi va uni yemoqchi bo'lib, endi og'ziga olib borgan edi, shu payt kutilmaganda uning yonginasidan bir bug'u yugurib o'tdi. Sher quyonni tashlab, bug'u orqasidan quva ketdi. Lekin ming quvlagani bilan unga yeta olmadi va topgan quyonimdan qo'ymasin, deb orqasiga qaytib keldi.

Bu paytda quyon uyg'onib, allaqachon juftakni rostlab qolgan edi. Shunda sher quyondan ham ayrligани ko'rib, dedi:
- Ming la'nat! Uzoqdagi o'jani deb, qo'limdagisini qo'yvorib o'tiribman men ahmoq!

Ozoda SHOBILLOVA tayyorladi

Muassis:
O'zbekiston davlat san'at va
madaniyat instituti

Bosh muharrir
Eldor SHERMANOV

Tahrir hay'ati:
Sobirjon JUMAYEV
Ma'rufjon YO'LUDOSHEV
Jumagul NISHONOVA

Mas'ul kotib:
Ozoda Shobillova

Tahririyat manzili: 100164 Toshkent shahri,
Mirzo Ulug'bek tumani,
Yang'och mavzesi, 127 A uy.
Telefon: (71) 230-28-03. (71) 230-28-13.
www.dsni.uz
nashriyot@dsni.uz

Sahifalovchi:
Abdug'an SODIQOV

Gazeta institutning tahririyat va nashriyot bo'limida tayyorlandi. O'lchami – A3, hajmi 2 bosma taboq.
Nusxasi – 319 dona. Narxi kelishilgan narxda.
Chop etishga 16.10.2022-yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami bilan 2012-yil 19-dekabrdra ro'yxatga olingan.

Gazeta har oyning oxirgi haftasida "NISO POLIGRAF" MCHJ bosmaxonasida chop etiladi.
Manzil: O'rta Chirchiq tumani, Oqota QFY, Mash'al mahallasi, Markaz – 1.

Mushoira



Diyorbek UNGBOYEV,
Xalq ijodiyoti fakulteti,
"Folklor va etnografiya" kafedrası
1-bosqich talabasi

Vatan

Xayolimda yangraydi doim,
Olam ichra mo'tabar isming.
Dargohinga fidodur jonim,
Gashti bisyor yarashgan fasling.
Toki tirik yashayabman-ku,
Vatan seni asrayman mangu.

Osmoningda yayragan quyosh,
Mehr berib keng ona yerga.
Qadr topgan baxtili keksa-yosh,
Shukronalar aylab taqdirega.
Vatan mehring onamga qiyos,
Qalbim uzra noming beqiyos.

Ijad ahli ta'rifing kuylab,
Keng duyoga yoydi baralla.
Kelajaging tinchliging o'ylab,
Xizmatingda butun mahalla.
Aylagaymiz hurmating baland,
Bo'lib senga munosib farzand.



Oqila ORTIQBOYEGA,
Xalq ijodiyoti fakulteti "Madaniyat va
san'at muassasalarini tashkil etish va
boshqarish" yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Sotib ololmassiz

Bu dunyo o'tkinchi, ey, aziz do'stim,
Past-u baland yo'lda anchayin o'sdim.
Lek bir haqiqatga men amin bo'ldim,
Soat sotib oldim, vaqt sotilmadi.

Yaxshilik qilarsan yaxshi-yomonga,
Ishing tushsa ular qochsa har yonga.
Bir qara, do'stginam, Allah tomonga,
Qur'on sotib oldim, iymon sotilmas.

Xasta bo'lib qolsang, kerakmassan bil,
Eng yaqin do'stlarining sen uchun qotil.
Shundayin kunlarda eziladi dil,
Dori sotib oldim, sog'liq sotilmas.

Sotib ololmadim yoshlik damlarim,
Sotilmadi o'sha shodon kunlarim.
Hatto-ki, yo'q shirin xotiralarim
Hech birin topmadim izlaganlarim.

Nahotki, yo'q endi yaxshi odamlar,
Izlayman, odimlar og'ir qadamlar.
Faqt yog'iladi yolg'on qasamar,
Sirdosh, dildosh bir do'st sotilmas.

Ota-onang g'animat unutma biroq,
Bir yo'qlab qo'y, qara, sochlarida oq.
Topolmassan keyin manzili yiroq,
Sotib oldim dunyo, umr sotilmas.

Yaxshilik qiluvchi bugun juda oz,
Niqboda-yu, lekin qomati daroz.
Bu hayotda u zo'r masxaraboz,
Do'star sotib oldim, vafodori sotilmas.